

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING IJTIMOYIY ADOLATNI QAROR TOPTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Safarova Tumaris Rustamkulovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: tsafrova925@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9469-1425>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda tenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlashdagi imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, jamoatchilik nazoratining samarali yo'lga qo'yilishi fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlovchi muhim omil ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, jamoatchilik nazorati, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla, fuqarolik faolligi, inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, demokratik boshqaruv, ijtimoiy hamkorlik.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УТВЕРЖДЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ

Сафарова Тумарис Рустамкуловна

Ташкентский государственный экономический университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье проводится научно-теоретический анализ роли и значения институтов гражданского общества в обеспечении социальной справедливости. Рассматриваются возможности институтов гражданского общества в развитии взаимодействия между государственными органами и обществом, защите прав и свобод граждан, а также укреплении принципов равенства и справедливости в обществе. Кроме того, раскрывается значение эффективной организации общественного контроля как важного фактора, обеспечивающего активное участие институтов гражданского общества в общественной жизни.

Ключевые слова: гражданское общество, социальная справедливость, общественный контроль, негосударственные некоммерческие организации, махалла, гражданская активность, права человека, социальное равенство, демократическое управление, социальное партнёрство.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN PROMOTING SOCIAL JUSTICE

Safarova Tumaris Rustamkulovna

Tashkent State University of Economics, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of civil society institutions in ensuring social justice. It examines the potential of civil society institutions to promote interaction between public authorities and society, protect citizens' rights and freedoms, and strengthen the principles of equality and justice in society. The article also highlights the effective organization of public oversight as an important factor in ensuring the active participation of civil society institutions in public life.

Keywords: civil society, social justice, public oversight, non-governmental non-profit organizations, mahalla, civic engagement, human rights, social equality, democratic governance, social partnership.

Kirish. Insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab, to bugungi fuqarolik jamiyati qaror topguniga qadar ko'plab tarixiy jarayonlarni, davlatchilik va boshqaruv shakllarini boshdan kechirdi. Quldorlik davridan farqli ravishda, insonlar azaldan demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etishga intilib kelganlar. Natijada sekin-astalik bilan insonlarning turmush tarzida demokratik tamoyillar paydo bo'la boshladi. Dastlab Qadimgi Afina davlatida demokratiya qaror topgandan keyin insonlarda ijtimoiy adolatga xos hayot tarzi shakllandi. Quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm kabi turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida insonlarning huquqiy ongi, siyosiy tafakkuri o'zgarib borib, jamiyatdagi adolat haqidagi tasavvurlari tobora takomillashib bordi. Aynan huquqiy ongning rivojlanishi, zamon talabining o'zgarishi insonlarda ijtimoiy adolat tamoyillariga bo'lgan ehtiyojni tobora oshirdi. Insoniyat tarixida kechgan ocharchilik, xalqlar urushi, kambag'allik, ekologik fojialar ham

ijtimoiy adolatning ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati sharoitida ijtimoiy adolat davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning muhim tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mahalla va boshqa jamoat tuzilmalari aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ilgari surishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va hisobdorligini ta'minlash, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa ijtimoiy adolat tamoyillarining amaliy jihatdan ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy adolatni qaror toptirish faqat davlatning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa ijtimoiy subyektlarning hamkorligini talab etadigan jarayondir. Jamiyatda huquqiy tenglik, imkoniyatlar tengligi, ijtimoiy himoya, adolatli mehnat munosabatlari, ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ijtimoiy adolatning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. Demak, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan demokratik va huquqiy qadriyatlar bugungi kunda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan institutsional va huquqiy asoslarni shakllantirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda mazkur yo'nalishga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish masalalariga bag'ishlangan olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi.

Mazkur manbalarni tahlil qilish orqali fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotidagi o'rni, ularning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi imkoniyatlari o'rganildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi ahamiyati yoritildi. Adabiyotlar tahlili tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi rolini kompleks o'rganish imkonini berdi.

Metodologiya. Tadqiqotda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida qiyosiy, tizimli, tahliliy va sintez metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy metod orqali turli davrlar va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi yondashuvlari o'zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida fuqarolik jamiyati institutlari, davlat organlari va jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaxlit tizim sifatida o'rganildi.

Natijalar va muhokama. Bizga ma'lumki, ijtimoiy adolat – bu demokratik jamiyatning asosiy va muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy adolat tushunchasi fuqarolik jamiyati institutlari samaradorligini anglashda markaziy o'rin tutadi. Ijtimoiy adolat odamlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlikka ko'maklashuvchi tarmoqlar, me'yorlar va o'zaro ishonchni o'z ichiga oladi [1]. Ijtimoiy adolat darajasining yuqoriligi fuqarolik institutlari faoliyatining o'zaro tenglik, adolat va shaffoflik tamoyillariga asoslanganligi bilan belgilanadi. Ijtimoiy adolat demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir.

Albatta, bunda fuqarolar huquqiy ongining darajasi bilan ahamiyati belgilanadigan fuqarolik jamiyatining shakllanganligi alohida o'rin egallaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o'rtasida vositachi sifatida fuqarolar manfaatlarini ifodalaydi. Oila va mahalla – bunda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Odatda oila, bozor va davlatdan tashqaridagi, shaxslar umumiy manfaatlarini ilgari surish maqsadida birlashadigan soha sifatida ta'riflanadigan fuqarolik jamiyati shaffoflik, hisobdorlik va boshqaruv jarayonlarida ishtirok etishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolik jamiyati tarkibida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ushbu tuzilmalar fuqarolar va davlat o'rtasida vositachi vazifasini bajarib, siyosatdagi islohotlarni yoqlab chiqadi, muhim masalalar bo'yicha xabardorlikni oshiradi hamda hukumatlarni o'z harakatlari uchun hisobdorlikka chaqiradi.

Fuqarolik jamiyati kontekstida siyosiy o'zgarishlar demokratlashtirish, siyosatdagi islohotlar hamda jamoatchilik qarashlari va xulq-atvoridagi o'zgarishlar kabi jarayonlarni qamrab oladi. Mazkur tuzilmalar islohotlarni ilgari surish va jamiyatdagi dolzarb masalalar bo'yicha xabardorlikni oshirishda o'z tarmoqlari hamda ijtimoiy adolat prinsiplaridan samarali foydalangan holda siyosiy o'zgarishlarga muhim hissa qo'shadilar. Bu institutlarning ishlashi va natijadorligini oshirish uchun, avvalo, aholining huquqiy bilimi bo'lishi va fuqarolik jamiyati shartlari muqim qaror topgan bo'lishi talab etiladi.

Fuqarolik jamiyati va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik xususida ilmiy maqolalarda to'liq yoritib bo'lmaydigan darajada keng ko'lamli muhokamalar mavjud. Shunga qaramay, ushbu munosabatlarning mohiyati so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida rivojlanish masalalari bilan shug'ullanuvchi hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otib kelayotganini ishonch bilan aytish mumkin. Xorijlik sotsiolog olimlar Jud Xauell va Jenni Pirs ta'kidlaganidek: «Fuqarolik jamiyati XXI asr boshlariga kelib rivojlanish siyosati va amaliyoti sohasida muhim, hatto paradigmal ahamiyatga ega tushuncha sifatida o'z o'rnini egalladi» [4:53].

Ushbu o'rinda biz milliy va mahalliy fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayonlariga hissa qo'shishining ikki yo'lini – ijtimoiy adolat tushunchasi hamda muayyan fuqarolik jamiyati tashkilotlarining (ya'ni, rivojlanish masalalari bilan bevosita shug'ullanuvchi tashkilotlarning) turi va funksiyalari orqali maqola mavzusini yoritib bermoqchimiz. Sababi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini o'rnatish uchun, avvalo, insonlarda huquqiy immunitetni shakllantirish zarur.

Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini muvofiqlashtiradigan mexanizmlardan biri ham – aynan huquqiy

ongi shakllangan va har qanday islohotlarni tahlil qila oladigan fuqarolardir. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy adolatning shakllanishida va barqarorlashishida muhim ahamiyat kasb etadigan subyektdir. O'z mustaqilligiga ega bo'lgan va demokratik tamoyillar asosida boshqarilayotgan davlatlarda ijtimoiy adolat faqatgina boshqaruv idoralari orqali emas, balki fuqarolarning jamiyatda qabul qilinayotgan islohotlarga daxldorligi, munosabati, ishtiroki, jamoatchilik nazoratining o'zni va ahamiyati bilan ham belgilanadi. Shuningdek, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini belgilab, mustahkamlab bermoqda [2].

Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va boshqa jamoat birlashmalari aholining manfaatlarini ifodalashda tobora faol ishtirok etmoqda [3:25]. Mazkur institutlar aholining muammolarini aniqlash, ularni davlat organlariga yetkazish hamda yechim ishlab chiqishda vositachi vazifasini bajaradi. Mahalla yettiligining tashkil etilishi, davlat hokimiyati vakillarining quyiga tushib ishlashi, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokining tobora oshib borishi – bularning barchasi ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladigan omillar hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi muhim vazifalaridan biri jamoatchilik nazoratining ahamiyatini oshirishdir. Jamoatchilik nazorati davlat organlari faoliyatining ochiqdigi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazorati kuchayadi, korrupsiyaviy holatlarning oldi olinadi, davlat xizmatlari sifati yaxshilanadi hamda aholining davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchi ortadi.

Ayniqsa, mahalla instituti faoliyatining barqarorlashtirilishi, vakolatlarining oshirilishi hamda mahalla yettiligi faoliyatiga oid keng imkoniyatlar berilishi – jamiyatda ijtimoiy adolat mezonining qaror topishi va mustahkamlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir mahallada istiqomat qilayotgan fuqarolarning ijtimoiy holatidan xabardor bo'lib turish, ularning muammolarini aniqlash, ijobiy hal qilish, murojaatlarini eshitish va hal qilish, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, ijtimoiy yordamni manzilli tashkil etishda ijtimoiy adolat mezonlariga tayanish – bugungi islohotlarimizning bosh bo'g'ini sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy sheriklik asosidagi munosabatlarning rivojlanishi ham fuqarolik jamiyatida ijtimoiy tenglikning barqarorligidan dalolat beradi. Davlat ijtimoiy buyurtmalari, grantlar va subsidiyalar orqali fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashmoqda. Bu esa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlarining takomillashtirilishi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati uchun yangidan-yangi, keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Elektron murojaatlar, ochiq ma'lumotlar portallari, "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portali hamda virtual qabulxonalar fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini sezilarli darajada kengaytirdi [5:78].

Fuqarolik huquqida taraflarning teng huquqliligi, mulk shakllarining tengligi tamoyillari ijtimoiy adolatning huquqiy asoslarini shakllantiradi. Shu jihatdan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har bir shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini teng darajada himoya qilish adolat tamoyilining muhim ko'rinishlaridan biridir [6].

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy adolatni qaror toptirish va uni barqaror rivojlantirishning muhim institutsional omillaridan biri hisoblanadi. Demokratik jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanishi nafaqat davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligiga, balki fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, huquqiy ongi va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlovchi, fuqarolarning manfaatlarini ifodalovchi hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mahalla institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati aholining ijtimoiy muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ularni hal etishda davlat organlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, mahalla tizimini takomillashtirish, mahalla yettiligi faoliyatini kuchaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va manzilli yordam ko'rsatish mexanizmlarining kengaytirilishi jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri).** – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 112 b. – URL: <https://constitution.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni.** 2018-yil 12-aprel, O'RQ-474-son. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3679092>
3. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni.** 1999-yil 14-aprel, 763-I-son (amaldagi tahrir). – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-11360>
4. Abdusamatov A., Qirg'izboyev M., Jumayev T. **Fuqarolik jamiyati: darslik.** – Toshkent: Tayms, 2018. – 98 b. – URL: <https://akbt.tkti.uz/uz/books/21454>
5. Kenjayev A., Tuxtasinov N. I. **Fuqarolik jamiyati: o'quv qo'llanma.** – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025. – 264 b. – URL: <https://library.tsul.uz/uz/books/9914>
6. Oqyulov O., Yuldashev J. I., Imomov N. F. **Fuqarolik huquqiga kirish: darslik.** – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2025. – 728 b. – URL: <https://library.tsul.uz/uz/books/4834>